

Hududiy sanoat salohiyatini oshirish — kimyo tarmog'ida ustuvor yo'nalish

// 27.02.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/hududiy-sanoat-salohiyatini-oshirish-kimyo-tarmog-ida-ustuvor>



2026-yilda respublika hududlarida mahalliy korxonalar tomonidan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisining topshirig'iga muvofiq, manzilli ro'yxatga kiritilgan loyihalarining ijrosini joyiga chiqqan holda o'rganish maqsadida maxsus ishchi guruh tuzildi.

Ishchi guruh a'zolari bevosita hududlarda bo'lib, kimyo sanoati korxonalari faoliyatini o'rganmoqda. Xususan, Namangan, Andijon, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo hamda Navoiy viloyati hududlaridagi kimyo sanoati korxonalariga tashriflar amalga oshirildi.



O'rganishlar davomida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, xomashyo ta'minoti barqarorligi, texnologik jarayonlarning samaradorligi hamda mahsulot turlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil qilindi.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hududlarda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va texnik yangilanish ishlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ayni paytda import o'rnini bosuvchi yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, mahalliylashtirish darajasini ko'tarish va ichki bozor ehtiyojini to'liq qondirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.



Ishchi guruh tomonidan har bir korxona kesimida mavjud muammolar, infratuzilma masalalari va qo'shimcha imkoniyatlar yuzasidan aniq takliflar tayyorlanmoqda. Bu esa loyihalar ijrosini jadallashtirish va aniq natijalarga erishishga xizmat qiladi.

